Universitet Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi majlisi
9-sonli bayonnomasiga
8-ILOVA

Mazkur nizomga kiritilgan o‘zgartirishlar:
Universitet Kengashining 2026-yil 11-sentabrdagi 3-sonli bayonnomasining 1-ilovasi

Toshkent davlat yuridik universitetining o‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasi

I. Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-232-son farmoni hamda Toshkent davlat yuridik universitetining strategik rivojlantirish dasturida universitet boshqaruvini takomillashtirish, yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Strategik rivojlantirish dasturlarida muayyan sohada belgilangan vazifalarni to‘liq ro‘yobga chiqarish maqsadida alohida substrategik hujjatlar qabul qilinishi mumkin.

Xususan, Toshkent davlat yuridik universitetining o‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasi substrategik hujjat hisoblanadi.

Unda xalqaro standartlarga muvofiq keluvchi, yuridik va boshqa ta’limning takomillashuviga zamin yaratuvchi hamda yuridik va boshqa kasblarning dinamik talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan ishonchli akademik asoslar o‘rnatilgan.

Toshkent davlat yuridik universitetining o‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasi ichki manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

Universitet mehnat bozorida kadrlardan tizimli va tanqidiy tahlil eta olish, bashorat qila olish va mustaqil qaror qabul qila olish, jamoada ishlay olish, tizimni boshqara olish va hamkorlik qila olish, o‘zining, aholi va mamlakat taqdiriga befarq bo‘lmaslik, huquq va adolat ustuvorligini ta’minlay olish talab etilayotganini anglaydi.

Bunday kadrlar avvalo bilimli, kasbiy etikaga rioya qiladigan, kreativ va malakali bo‘lishlari zarur.

Universitet Toshkent davlat yuridik universitetining o‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasi orqali aynan yuqorida qayd etilgan xususiyatlarga ega bo‘lgan, O‘zbekiston uchun xizmat qiladigan hamda xalqaro mehnat bozorida faoliyat olib borish imkoniga ega bo‘lgan bitiruvchilarni yetishtirib berishga intiladi.

II. Strategik maqsad va vazifalar

Universitet o‘qitish, ta’lim olish va assessment yo‘nalishida quyidagi yettita strategik maqsad va ularga muvofiq keluvchi vazifalarni belgilab oldi.

1. Sifatni ta’minlash va oshirib borish.

Maqsad: yuqori akademik standartlarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek o‘qitish, ta’lim olish va assessment jarayonini doimiy takomillashtirib borish.

Vazifalar:

davlat ta’lim standartlari hamda Yevropa oliy ta’lim makonida sifatni ta’minlash bo‘yicha standartlar va yo‘riqnomalar (ESG) asosida sifatni ta’minlashning ishonchli mexanizmlarini yaratish;

o‘quv-reja va modul sillabuslari, o‘qitish metodikasi va assessmentni doimiy monitoringdan o‘tkazish siklini belgilash;

talabalar tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga daxldor ma’lumotlardan foydalangan holda ta’lim dasturlarini takomillashtirib borish.

2. Talabaga yo‘nalgan o‘qitish, ta’lim olish va assessment.

Maqsad: talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlariga ustuvorlik berish hamda barcha akademik faoliyatda ularning faolligini qo‘llab-quvvatlash.

Vazifalar:

amaliyotga yo‘nalgan ta’lim, muammoli ta’lim va faol ta’lim strategiyalarini o‘z ichiga olgan o‘qitishning moslashuvchan yondashuvini joriy etish;

talabalar bilan personallashgan qayta aloqa (feedback) va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ta’minlash;

talabalarning o‘z ta’limi uchun mas’uliyatni zimmasiga olishlarini qo‘llab-quvvatlash.

3. Ilmiy tadqiqotga asoslangan ta’lim.

Maqsad: zamonaviy ilmiy tadqiqot natijalarini ta’lim dasturlariga singdirish orqali dolzarblik va innovatsiyalarni ta’minlash.

Vazifalar:

ilmiy tadqiqot loyihalarida professor-o‘qituvchilar va talabalarning hamkorlikda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlash;

ta’lim dasturlariga ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini singdirish;

muntazam talabalarning ilmiy konferensiya va seminarlarini o‘tkazib borish.

4. Xalqaro integratsiya va mobillikni kengaytirish.

Maqsad: talabalarda global dunyoqarashni kuchaytirish va universitetning xalqaro reputatsiyasini oshirib borish.

Vazifalar:

talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun xalqaro almashuv dasturlarini joriy etish;

o‘quv dasturlariga qiyosiy va xalqaro ahamiyatga ega mavzularni kiritish;

xalqaro universitetlar bilan kolloboratsiyaga asoslangan tadqiqot, qo‘shma ta’lim dasturlari va o‘qitish, ta’lim olish va assessment bilan bog‘liq masalalarda hamkorlik qilish.

5. Axborotning shaffofligi va ochiqligi.

Maqsad: barcha manfaatdor tomonlarga tegishincha ta’lim dasturlari, xususan, ta’lim dasturidan kutilgan natijalar, baholash mezonlari va o‘quv rejasi kontenti haqidagi aniq va oson olish mumkin bo‘lgan ma’lumotlar bilan tanishish imkonini berish.

Vazifalar:

ta’lim dasturi profillari va modul sillabuslari, ta’lim natijalari va baholash mezonlarini e’lon qilish;

assessmentga daxldor shaffof nizom yoki yo‘riqnomalarni ishlab chiqish;

talabalar bilan tegishli kanallar orqali muloqot olib borish.

6. Natijadorlikka asoslangan, shu jumladan, amaliy ko‘nikmalarga asoslangan ta’lim.

Maqsad: ta’lim dasturlarini yuridik va boshqa kasblarning talabidan kelib chiqadigan natijalar, shu jumladan amaliy ko‘nikmalarga javob beradigan tarzda yaratish.

Vazifalar:

amaliy ko‘nikmalar, tanqidiy mushohada yuritish va professional etikaga e’tibor qaratiladigan ta’lim dasturlarini yaratish (ta’lim dasturi profillari, o‘quv reja va modul sillabuslari);

muammoga asoslangan ta’lim (problem-based learning), case-study, simulyatsiyalar va o‘qitishning boshqa faol metodlarini qo‘llash orqali talabalarning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini baholash;

yuridik ta’lim dasturlarga klinik va dual ta’lim tamoyilini belgilangan tartib asosida joriy etish (bunda ta’lim dasturlarining amaliy qismlari sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatura, konsalting va sohaga doir boshqa tashkilotlarda, shuningdek, yuridik klinikada klinik seminarlar o‘tkazish orqali olib boriladi);

ta’lim dasturi va moduldan kutilgan natijalarni davriy tarzda industriyadagi o‘zgarishlar va manfaatdor tomonlar, shu jumladan, ish beruvchilarning fikr-mulohazalari asosida yangilab borish.

7. Ta’lim olishga yo‘nalgan assessment bo‘yicha strategik yondashuv

Maqsad: assessmentdan bilimlarni baholash vositasi emas, balki unga ta’lim olishning ajralmas qismi sifatida qarash, uning adolatli, ishonchli va ta’limdan kutilgan natijalarga muvofiq tarzda olib borilishini ta’minlash.

Vazifalar:

talabalarning samarali ta’lim olishi va akademik muvaffaqiyatini aniqlashtirish uchun formativ, oraliq va yakuniy nazoratni qo‘llash hamda talabalarning ishiga o‘z vaqtida fikr-mulohaza (feedback) berish;

assessment topshiriqlarini ular ta’lim dasturidan va moduldan kutilgan natijalarga muvofiq kelishiga ishonch hosil qilish uchun qayta ko‘rib chiqish;

assessmentning adolatli va ishonchli ekaniga ishonch hosil qilishga qaratilgan jarayonlarni joriy etish.

8. **Etika va professional standartlar.**

Maqsad: o‘qitish, ta’lim olish va assessement jarayonida yuqori standartlar va professional halollikni qo‘llab-quvvatlash.

Vazifalar:

ta’lim dasturiga etikaga daxldor masalalarni integratsiya qilish;

assessment va baholash jarayoni orqali akademik halollikni ta’minlash;

o‘qitish, ta’lim olish va assessmentda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha aniq va amalga oshirish mumkin bo‘lgan pozitsiyani ishlab chiqish.

III. Hujjatlarni ishlab chiqish, ijro etish va monitoring qilish

Universitet kengashi Toshkent davlat yuridik universitetning o‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasi va u bilan bog‘liq rejalar va natijadorlik ko‘rsatkichlarini tasdiqlaydi.

Universitet kengashi O‘qitish va ta’lim olish kengashiga Toshkent davlat yuridik universitetning o‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasini amalga oshirish vazifasini yuklaydi.

O‘qitish va ta’lim olish kengashi Toshkent davlat yuridik universitetning o‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasining barcha jihatlarini muhokama qilish va uni amalga oshirish uchun rejalar va natijadorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqadi hamda monitoring qiladi.

Universitet O‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasini ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilish jarayoniga manfaatdor tomonlarning keng doirasi, shu jumladan, professor-o‘qituvchilar va xodimlar, ish beruvchilarni jab etadi. Ularning fikr-mulohazalari doimiy tarzda olinadi va universitetning yondashuvini belgilash va kuchaytirish maqsadida foydalanadi.

IV. Yakuniy qoidalar

Mazkur strategiyaga taalluqli va uni amalga oshirish bilan bog‘liq savollar yuzasidan Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga murojaat qilish mumkin.

Ushbu strategiya o‘rnatilgan protseduraga asosan qayta ko‘rib chiqiladi. Zarur hollarda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi mazkur strategiyani qayta ko‘rib chiqishning tashkliy jihatlariga mas’uldir.

Mazkur strategiyaga kiritiladigan o‘zgartish va qo‘shimchalar Universitet kengashidan avval O‘qitish va ta’lim olish kengashi tomonidan muhokama qilinadi.